

ADABIYOT SO‘Z SAN’ATI: FOLKLOR

Allambergenov Anvar Erkabayevich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

LITERATURE VERBAL ART: FOLKLORE

Allambergenov Anvar Erkabayevich, doctor of philosophy in philological sciences (PhD), associate professor

ЛИТЕРАТУРА СЛОВЕСНОЕ ИСКУССТВО: ФОЛЬКЛОР

Алламбергенов Анвар Эркабаевич, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент



<https://orcid.org/0009-0009-1497-0343>

e-mail:

anvarallambergenov11@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada adabiyotning so‘z san’ati, folklor esa uning ajralmas bir bo‘lagi ekanligi haqida gap boradi. Folklorning eng kichik janrlaridan biri bo‘lmish topishmoqlar haqida atroflicha so‘z yuritilib, ayrim topishmoqlar tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: so‘z san’ati, xalq og‘zaki ijodi, folklor, topishmoq, tahlil.

Abstract: The article discusses the art of words in literature, and folklore is an integral part of it. The article discusses in detail the riddles, which are one of the smallest genres of folklore, and some riddles are analyzed.

Keywords: art of words, folk oral art, folklore, riddle, analysis.

Аннотация: В статье рассматривается литература как словесное искусство и фольклор как его неотъемлемая часть. Подробно рассматриваются загадки — один из самых маленьких жанров фольклора, некоторые из них анализируются.

Ключевые слова: словесное искусство, устное народное творчество, фольклор, загадка, анализ.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Shu vaqtgacha ta’lim tizimining turli bosqichlari uchun darslik sifatida berilgan adabiyotlarda, qolaversa, boshqa ilmiy manbalarda folklor atamasiga inglizcha “folk” – xalq va “lore” – donolik so‘zidan olingan bo‘lib, “xalq donoligi, xalq donishmandligi” ma’nonilarini bildiradi degan deyarli bir xil ta’rif berilgan. Bu atamani ilk bor 1846-yil Vilyam Toms qo‘llagan. O‘zimizda

va boshqa xalqlarda mavjud bo‘lgan xalq ijodiyoti, xalq og‘zaki ijodi deb atalgan tushunchaga shu tariqa “folklore” deya nom berilgan. “Folklor – so‘z san’atining boshlang‘ich namunasi bo‘lib, u behad qadimiy so‘z san’ati hisoblanadi, unda uzoq o‘tmishda yashagan ibtidoiy ajdodlarimizning hali yozuvni bilmagan zamonlardagi turish-turmushi, dunyoqarashi va e’tiqodi, kurash va mag‘lubiyatlari ifodalangan”¹³⁰. Xalq folklorning

¹³⁰ Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Musiqa nashriyoti. Toshkent, 2010-yil. 18-bet.

muallifi, soʻz sanʼatkori hisoblanadi. Folklor soʻz sanʼatining ilk boʻgʻini oʻlaroq mumtoz adabiyotdan va zamonaviy adabiyotdan ham oldinda turuvchi lokomotivi hisoblanadi. Xalq ogʻzaki ijodiga toʻyingan va ulardan bevosita taʼsirlangan holda bitilgan asarlar xalq dilidan joy olgan holda tillardan tillarga koʻchib, asrlar mobaynida oʻquvchilarning sevimli asari sifatida qoʻldan qoʻyilmay oʻqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Folklor soʻz sanʼati sifatida badiiy sanʼatga ham yozma adabiyotga nisbatan ancha yaqinligi bor gap. Bu sanʼatlar quyidagilar: musiqa sanʼati (mavsum-marosim qoʻshiqari, oʻlanlar, yor-yorlar, yoʻqlovlar), xalq oʻyinlari (xalq teatri, qoʻgʻirchoq teatrlari va h.k). Shularni inobatga olgan holda folklori sintezlashgan soʻz sanʼati deyishimiz ham mumkin. Qolaversa, “Folklorshunoslik sotsiologiya, etnologiya, til, tarix, arxeologiya, sanʼatshunoslik, musiqashunoslik va boshqa fanlar bilan aloqadorlikda ish koʻradi. Chunki folklor sinkretik soʻz sanʼati sifatida sanʼatning barcha turlari bilan chambarchas bogʻlangan”¹³¹. Folklor namunalarining adabiyotga koʻchishi, yaʼni yozuvchi va shoirlar ulardan oʻz asarlarida foydalanishi, asarlarining maʼlum bir oʻrinlarida maqola, matal, topishmoq, latifa, ertak, rivoyat, afsona va shu kabi folklor janrlarining aynan keltirilishi folklorizmlar hisoblanadi. Folklor badiiy adabiyotning boyishiga, uning mukammallashishiga, tarqqiy etishiga oʻzining munosib hissasini qoʻshgan, qoʻshib kelmoqda va bundan keyin ham qoʻshaveradi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION). Folklorda koʻplab katta-kichik janrlar mavjud boʻlib, ularning har biri soʻz vositasida insonlarga har xil taʼsir kuchini koʻrsatadi. Masalan, topishmoq kichik janr hisoblansa-da u insonni oʻylashga, fikrlashga, tafakkur qilishga undaydi, nafaqat undaydi, balki majbur qiladi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun yaqindan yordam beradi. Topishmoqlar soʻz vositasida insonni favqulodda tezlikka,

hozirjavoblikka oʻrgatadi, undagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Topishmoqlar asosan, tildagi yashirin imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga maʼlum bir maʼno va shu maʼnoga yashiringan sirni, maʼlum bir vaziyatlarni aynan oʻz holicha emas, boshqacha tarzda soʻz vositasida niqoblagan holda bir odam tomonidan boshqa bir odamga yoki umumga qaratib aytiladigan jumboq hisoblanadi. Topishmoqlar tilning imkoniyatlarini kengaytirgan holda oddiy soʻzlashuv uslubidan farq qiladigan tarzda maʼno va mazmunni yashirin yoki ularni oʻzgacha bir shakllarda ifoda etadi. Topishmoqlarda metaforalar, kinoyalar, qochirimlar, bir soʻzni koʻp maʼnolar bilan qoʻllash orqali til imkoniyatlarini boshqa janrlarga qaraganda koʻproq, kengroq ochib berish imkonlari mavjud. Odatda topishmoqlarning javobini topish uchun oʻylash, mantiqiy va izchil fikrlash talab qiladi. Oʻrtaga tashlangan savol eng avvalo diqqatni jalb qilishi, fikrlashga undashi, turli xil tasavvurlarni uygʻotishi kerak. Bu esa oʻz navbatida topishmoqni eshituvchilar va javob izlovchilarda kutilmagan taassurotlar qoldiradi. Topishmoqlar inson tafakkurini oʻstirishga, fikrlash doirasini kengaytirishga, nutqini rivojlantirishga, voqealikka tezkor munosabat bildirishga yaqindan yordam beradi. Ular turli madaniyatlarda, hatto bir xalqning turli xil hududlarida turlicha xususiyatlarga ega. Ularning ifodalanishi jamiyatdagi qadriyatlar, urf-odatlar, anʼanalar, diniy qarashlar bilan ham chambarchas bogʻliq. Soʻzimizning isboti sifarida respublikamizning shimoliy hududlaridagi bir topishmoqni keltirib oʻtish maqsadga muvofiq. **Qishda mozor, yozda bozor.** Mozorlar turli xalqlarda har xil koʻrinishlarga ega. Yuqorida aytganimizdek, bir xalqning turli hududlarida yashovchi odamlarining dunyoqarashi, eʼtiqodi, iqlimi va shu kabi koʻplab oʻziga xosliklardagi farqlari singari topishmoqlarda ham hududiy va mantiqiy oʻziga xoslik mavjud. Respublikamizning shimoliy taraflarida boshqa hududlarga qaraganda qish nisbatan qattiq kelishi oqibatida ayrim meva turlarini sovuq urishi mumkin. Shuning ehtiyoitini qilgan holda ayrim

¹³¹ Safarov O. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi. Musiqa nshriyoti. Toshkent, 2010-yil, 18-bet.

mevalarni, xususan, anjir, anor, uzum kabi mevalarni kuzda maxsus vositalar va tuproq yordamida ko'milgandan keyin xuddi mozor shakliga o'xshab qoladi. Ko'milgan mevalar bahorda, aniqrog'i Navro'z bayramidan besh-o'n kun keyin yoki undan besh o'n kun oldin ob-havoning "rayiga" qarab ochiladi. Maqolning "*yozda bozor*" qismi o'z-o'zidan tushunarli bo'lsa kerak. Sababi mevalarning iste'moldan ortgan qismi bozorga olib chiqib sotiladi.

NATIJALAR (PEZYLTATY / RESULTS). Topishmoqlar yaratilishida deyarli barcha holatlarda bir narsa boshqa bir narsa bilan taqqoslanadi. Shu yo'l orqali bir ma'noni bir necha qatlamli boy ma'noga aylantirish mumkin. Ko'p holatlarda topishmoq qofiyalangan, ritmik va ohangdor tarzda tuzilganligi uchun yodda saqlanib qoladi. Topishmoqlarni turli darajalarda tushunish mumkin, bu esa ularga bo'lgan qiziqishni orttirishga omil bo'lib xizmat qiladi. "Har bir topishmoqning ichida yashiringan holda *kim? nima?* degan so'roq yotadi. Tinglovchidan yoki topishmoq aytishishda qatnashganlardan javob talab etiladi. Topilishi kerak bo'lgan narsalarning o'xshatma belgisi, bir tomondan, juda erkin tanlangani uchun, ikkinchi, ko'pincha singishib qolgan badiiy adabiyot normalaridan farq qilgani uchun javobini topish kishini ancha o'ylashga, topishmoqdagi belgilarning ko'chma ma'nolarini

axtarishga majbur etadi"¹³². So'z ma'nolarining serqatlam ekanligi, ular ochiqchasiga emas, yashirin, sirli va qiziqarli o'yin ko'rinishida ifodalanishi orqali folklorning boshqa janrlariga qaraganda topishmoqlar insonlarni ko'proq o'ziga jalb qiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Topishmoqlar ham bugungi globalashuv jarayonidan chetda qolgani yo'q. Ularning qadimiy va zamonaviy variantlari shakllanib ulgurdi. Topishmoqlar o'zidagi shu va shunga o'xshash ma'no qatlamlari bilan so'z san'atining bir vositasi ekanligini ham anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Musiqa nashriyoti. Toshkent, 2010-yil.
2. Jo'rayeva B. O'zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug'ati. Fan nashriyoti, Toshkent, 2006-yil.
3. Alpomish. O'zbek xalq qahramonlik dostoni. Sharq nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. Toshkent, 1998-yil.
4. XX asr o'zbek folklorshunosligi antologiyasi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2017-yil.
5. www.wikipedia.uz



¹³² XX asr o'zbek folklorshunosligi antologiyasi. Zubayda Husainovanning "Topishmoq terminlari" maqolasidan.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2017-yil, 121-bet.